



Biz bilib oldik:

Atrof-olam haqidagi ma'lumotlar axborot deb ataladi.

Axborot qaysi sezgi a'zolari orqali qabul qilinishiga ko'ra eshitish, ko'rish, ta'm bilish, hid bilish va ushlab his qilish kabi turlarga bo'linadi.

Axborot axborot manbayidan axborot qabul qiluvchiga uzatiladi.

Axborot bilan ishlaydigan qurilmalar axborot qurilmalari deb ataladi.

Axborotni saqlash uchun qog'ozli yoki elektron ko'rinishdagi turli xil axborot tashuvchi qurilmalardan foydalaniladi.

Axborot qurilmalari bilan ishlaganda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish zarur.

II bob. Axborotlar bilan ishlash



Axborot jarayonlari

Axborotlar bizni har tarafdin qurshab turadi. Atrofinizdagi har bir predmet axborot manbayidir. Miyamiz ularni sezgi a'zolarimiz yordamida qabul qiladi va eslab qoladi, ya'ni o'z xotirasida saqlaydi.



1. Rasmda qaysi axborot manbalari tasvirlangan? Akmal ulardan qanday axborotlarni olishi mumkin?



Biroq axborotni xotirada saqlash noqulay – ularni unutish mumkin. Axborotlarni uzoq vaqt davomida saqlash va boshqalar bilan bo'lishish uchun ularni qog'ozga yozib qo'yish yoki kompyuter, telefon, fleshka, CD-disk kabi elektron axborot tashuvchilarda saqlash qulayroq. Tashuvchilarga yozib olingan axborotlarni boshqa odamlarga rasm, tovush, matn yoki videoxabarnomalar yordamida yetkazish mumkin.




2. Rasmlarga qarang. Ularda axborotlar qayerda saqlangan?



Yangi ma'lumotni qabul qilishi bilanoq miya uni o'z xotirasida saqlangan bilimlar bilan taqqoslaydi va xulosa chiqaradi. Bu jarayon **axborotni qayta ishlash** deb ataladi.

Axborotlar bilan turli xil amallarni bajarish mumkin. Bunday amallar axborot jarayonlari deb ataladi.



- 3.** Har bir hayvonni soyasiga qarab aniqlang.
Nima uchun miyangiz shunday xulosaga keldi?



- 4.** Savollarga javob bering.

- Inson axborotlar bilan qanday munosabatda bo'ladi?
- Siz maktabda axborotlar bilan qanday amallarni bajarasiz?

